XALQ DEPUTATLARI QARSHI SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-163-4-69-K/25 Qarshi shahar

Qarshi shaharning 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105 son Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 20-oktyabrdagi 02-1518-sonli hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrdagi 01/57-1-29242-sonli xatlari hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-20-218-4-0-K/25-son qarorini inobatga olib, xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025 yil 29 dekabrdagi VII-20-218-4-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Qarshi shahar budjetining 2026 yilgi daromadlari **184,7 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **184,7 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi shuningdek Qarshi shahar budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1,3 mlrd.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3.Qarshi shaharning 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2027-2028-yilga mo‘ljallari **1-ilovaga**;

4. Shahar budjeti daromadlarining 2026 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilovaga**;

shahar budjetidan 2026 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari **3-ilovaga**;

2026-yil uchun shahar budjetiga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **5-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2026-yil uchun shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

7. Shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026 yil uchun **2,5 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun shahar budjetining zaxira jamg‘armasi tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan shahar budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Bunda shahar budjetining zaxira jamg‘armasi miqdori oldingi yildagi hajmidan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirilishi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinsin.

8. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **7-ilovaga;**

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **8-ilovaga;**

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar **9-ilovaga;**

2026 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **10-ilovaga;**

2026 yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **11-ilovaga;**

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **12-ilovaga;**

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **13-ilovaga;**

2026-yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **14-ilovaga;**

Qarshi shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha 2026-yilda yuridik shaxslar uchun belgilangan mutlaq miqdordagi 1 gektar yer solig‘ining bazaviy stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **15-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashi mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, mazkur qarorning 7 va 8-ilovalariga asosan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Turdiyev), shahar soliq inspeksiyasi (I.Salomov) bilan birgalikda 2026 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

10. Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar 2026-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin

11. Shahar soliq inspeksiyasi (I.Salomov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. Majburiy ijro byurosi Qarshi shahar bo‘limi, shahar soliq inspeksiyasi (I.Salomov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (A.Rustamov) Bo‘sh turgan ob’yektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (I.Jo‘rayev) va tegishli ma’sul tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilganligi ijro uchun qabul qilinsin.

14. Qarshi shahar “Suv yetkazib berish xizmati” DM va shahar soliq inspeksiyasi (I.Salomov) shahardagi mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda shaharda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Xalq deputatlari shahar Kengashi hamda shahar hokimligi hamda mas’ul tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

16. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

17. Shahar hokimligi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi (S.Sarikov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi (N.Tilakov) budjetdan ajratilgan

mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

19. Shahar hokimligi Axborot xizmati, Davlat soliq inspeksiyasi (I.Salomov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Tursunov) bilan birgalikda hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

20. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

21. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvar kunidan boshlab kuchga kiradi.

22. Xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-026-4-69-K/24-sonli qarori 2025-yil 31-dekabr kunidan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

23. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi (N.Farmonov) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (N.Turdiyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **XOLBOYEV NORMUMIN YAXSHIYEVICH**

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qarshi shaharning 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2027-2028-yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2026 yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2027 yil	2028 yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	-	-	-
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	-	-	-
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	0.6	0.6	0.5
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	106.0	106.2	106.4
5.	Qurilish pudrat ishlarining o‘sish sur’ati, foizda	111.1	111.4	112.1
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	104.5	104.7	104.9

6.	Xizmat ko‘rsatish sohasining o‘sish sur’ati, foizda	117.7	117.9	118

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Qarshi shahar mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari

ming so'mda

T/R	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	2 568 900
2	Aylanmadan olinadigan soliq	34 112 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	41 259 744
4	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 842 271
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	4 327 300
6	**Aksiz solig‘i, jami**	7 198 093
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*7 198 093*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 556 960
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	48 110 000
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	8 728 243
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	26 196 520
11	Qurilish materiallari bo ‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	541 650
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	127 000

	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-51 000
13	Davlat boji	
14	Jarimalar	
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovi	215 000
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
17	Yig‘imlar	
18	Xususiylashtirish	
19	Boshqalar	
Mahalliy budjet		**184 656 681**

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Qarshi shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so'm

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Qarshi shahar
Xarajatlar miqdori, jami		**184 656 681**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*41 801 409*
	shundan:	
	«Mening maktabim»	*3 120 000*
3	Madaniyat bo‘limi	*10 725 101*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*7 099 132*
5	Sport bo‘limi	*4 089 099*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*2 465 978*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*2 221 400*
8	Irrigatsiya bo‘limi	
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*3 668 232*
10	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*288 740*
11	Hokimyat	*53 881 574*
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*30 722 313*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*3 252 531*

	Zahira jamg‘armasi	*2 506 554*
12	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*59 415*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*59 415*
	Axborot-kutubxona markazlari	
13	Obodonlashtirish boshqarmasi	58 356 601
14	Boshqa tashkilotlar	

Xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yil uchun Qarshi shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari

foiz hisobida

№	Hudud nomi	Qo'shilgan qiymat solig'i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i				Foyda solig'i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Qarshi shahar	0%	5%	100 %	95%	0%	5%	100%	95%	0%	5%	100%	95%	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	9%	100 %	91%	0%	16%	100%	84%

№	Hudud nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i				Yuridik shaxslarning yer soliq				Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo'yicha dividentldar				Aylanmadan soliq		Davlat boji	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB				
1	Qarshi shahar	100%	100%	0%	0%	0%	16%	100%	84%	100%	100%	0%	0%	100	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	0%	100%

														%										

Izoh: 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 3111302, 3111303, 3111304, 3111305, 3111104, 3111106, 3111300, 3111301, 3111600, 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag'lar to'liq tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga yo'naltiriladi;

2. Jarimalar (3 430 103), davlat boji (3 422 103) va yig'imlar (3 422 203) bo'yicha tushumlar to'liq tegishli tumanlar va shaharlarlar mahalliy bdjetlariga yo'naltiriladi;

3. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'lari (3510810) tuman (shahar)lar hamda viloyat budjeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

4. Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilangan me'yorlarga asosan taqsimlanadi.

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Qarshi shahar mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

mln.so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Qarshi shahar	184,7	184,7

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
6-ilova

2026-yilda Qarshi shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Qarshi shahar	1 775 539

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Qarshi shaharda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsient

T. R	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun (ming.so‘m)
1	Qarshi shahar	1,45	61 480,0

Izoh: shahar Kengashi tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida shahar markazi uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Qarshi shaharda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsient

T.R	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun (so‘m)
1	Qarshi shahar	1,45	547,0

Izoh Shahar Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida shahar markazi uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Qarshi shaharda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsient

T/r	Hudud nomi	Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 2026 yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbattan qo‘llaniladigan (Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga tegishli sub’ektlardan tashqari)	
		Koeffitsent miqdori	Eng kam qiymat (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Qarshi shahar	1,00	2 350 000

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
10-ilova

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Bir oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda			
		Binolar:			
		Turar joy		Noturar joy	
		Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)	Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)
1	Qarshi shahar	1,50	21 750	1,60	45 440

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
11-ilova

2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Soliq kodeksi bo‘yicha 2026-yil uchun belgilangan stavka %	Koeffitsient miqdori	Koeffitsient qo‘llanilganidan keyingi soliq stavkasi %
1	Qarshi shahar	0,95	1,00	0,95

Xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
12-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffisentlar miqdori

T/R	Tuman (shahar) nomi	2025-yil koeffisient miqdori				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umuiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarni qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.mdan ortiq va 500 kv.mgacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obektlari
1	Qarshi shahar	1,20	1,20	1,20	1,20	1

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
13-ilova

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T.R	Tuman va shahar nomi	Faoliyat turlari kesimida		
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan elektr stansiyalari va kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun moʻljallangan, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar tomonidan yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydala	Avtotransport vositalarini yuvish uchun yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan f oydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yer usti va osti suv resurslari manbalaridan foydalan ilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffits iyent miqdori

		nilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffi tsiyent miqdori		
1	Qarshi shahar	1,25	1,4	1,25

Xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
14-ilova

2026-yil uchun yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

Tuman va shahar nomi	2026-yil uchun qoʻllanilgan koeffitsiyentlar (soʻmda)						
	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin soʻm/m.kub	Tabiiy bezaktoshdan bloklar soʻm/m.kub	Marmar soʻm/m.kub	Granitlar soʻm/m.kub	Gips toshi, gips va angidrid, ganch soʻm/tonna	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar soʻm/m.kub	Qum-shagʻal aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar soʻm/m.kub

	Koef-fitsiyent	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***
Qarshi shahar	1,20	7 909	1,20	12 840	1,20	25 680	1,20	38 520	1,20	20 479,2	1,30	6 425,9	1,30	6 955,0

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-163-4-69-K/25 -son qaroriga
15-ilova

Qarshi shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha 2026-yilda yuridik shaxslar uchun belgilangan mutlaq miqdordagi 1 gektar yer solig‘ining bazaviy stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi

KOEFFITSIYENTLAR

T/r	Nomi(1c)	*Shahar miqiyosida*			
		Shahar xalq deputatlari tomonidan belgilangan koeffitsiyent		*Soliq stavkasi*	
		Turar	*Noturar (yuridik)*	*Turar*	*Noturar (yuridik)*
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*
1	Arabxona MFY	0,88	0,88	481,05	5 410,24
2	Taraqqiyot MFY	0,88	0,88	481,05	5 410,24
3	Shayxali SHFY	0,88	0,88	481,05	5 410,24
4	Shayxali MFY	0,88	0,88	481,05	5 410,24
5	Temir yulchi MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
6	Xaramjo‘y MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
7	Xon-tepa MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
8	Qavali MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
9	Qo‘rg‘oncha MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
10	Mag‘zon MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
11	Navro‘z MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00

12	Batosh MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
13	Buyuk Turon MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
14	Bo‘ston MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
15	Zog‘za MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
16	Kamandi MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
17	Qarshi MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
18	Bunyodkor MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
19	Eskianhor MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
20	Maxsumobod MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
21	Mustaqillik MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
22	Navo MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
23	Naxshab (U.Yusupov) MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
24	Otchopar MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
25	Xudoyzod MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
26	Komilon (S.Raximov) MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
27	Kat MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
28	Aral MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
29	Aralovul MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
30	G‘.G‘ulom MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
31	Zaxokimaron MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
32	Qilichbek-Qo‘rg‘oncha MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
33	Charmgar MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
34	Roguzar MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
35	Shodlik MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00

36	Tabassum MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
37	Mahallot MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
38	Navoiy MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
39	Nasaf MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
40	Neftchi MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
41	Nuriston MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
42	Oydin MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
43	Oqtepa (F.Xujaev) MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
44	Paxtazor-1 MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
45	Ravoq MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
46	Kunchiqar MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
47	A.Temur MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
48	Beglar MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
49	Geolog MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
50	Gulshan MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
51	Gungon MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
52	Darvoza-Tutak MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
53	Istiqlol MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
54	Qarliqxona MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
55	Qarluq-bog‘ot MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
56	Xo‘ja-Xiyol MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
57	Chaqar MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
58	Shoxbekat MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
59	Cho‘lquvar MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00
60	Sho‘rtangaz MFY	1,00	1,00	546,65	6 148,00